



**“MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” ASARIDA RANG
RAMZIYLIGI VA MUSAVVIRNING ICHKI KECHINMALARI.**

Alijonova Nodiraxon Shavkatjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish

O‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Maymun yetaklagan odam” asarida musavvir obrazi, rang ramziyligi va qahramonning ichki kechinmalari badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Asardagi ranglarning ramziy ma’nosi, ularning qahramon ruhiy holatini ifodalashdagi o‘rni hamda musavvir obrazining psixologik talqini yoritiladi. Shuningdek, rang va obraz uyg‘unligi orqali asarning g‘oyaviy mazmuni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: musavvir, rang konsepsiyasi, ramziylik, ruhiy holat, badiiy-estetik xususiyatlar, obraz poetikasi, hikoya tahlili.

Kirish

O‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, uning ichki olami va kechinmalarini badiiy tasvirlash muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, san’atkor yoki musavvir obrazi orqali insonning ma’naviy iztiroblari, jamiyat bilan munosabati va ichki ziddiyatlari chuqur yoritiladi. “Maymun yetaklagan odam” asari ham ana shunday badiiy-estetik xususiyatlarga ega bo‘lib, unda musavvir obrazi va rang ramziyligi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Asosiy qism

Ushbu hikoya 1989-yil 6-yanvar kuni “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida bosilib chiqdi. Ushbu kichik hikoya syujeti va voqealar rivojining



o'zgachaligi bilan kitobxonlar e'tiborini jalb qila olgan .Eng avvalo uning sarlavhasi kishining aqlida asarni o'qimasdanoq munozarali kayfiyatni uyg'otadi.Xo'sh, odam maymunni yetaklaganmi yoki maymun odamni yetaklayapdimi ? Bu o'rinda o'zbek tiliga xos so'zlarning ma'no qirralari namoyon bo'lgan.Asarning sarlavhasi uning kompozitsiyasida muhim rol o'ynab , hikoyaning mazmunini o'zida namoyon qilgan.

O'zbek adabiyotida inson ruhiyati, uning ichki olami va kechinmalarini badiiy tasvirlash muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, san'atkor yoki musavvir obrazi orqali insonning ma'naviy iztiroblari, jamiyat bilan munosabati va ichki ziddiyatlari chuqur yoritiladi. "Maymun yetaklagan odam" asari ham ana shunday badiiy-estetik xususiyatlarga ega bo'lib, unda musavvir obrazi va rang ramziyligi muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Asar syujeti sayyor syujet bo'lib, yozuvchi hikoyani mavjud qoliplar asosida emas mutlaqo yangicha talqin , yangicha ruhda , o'ziga xos salohiyatda yozgan. Syujet voqealari xronikal tarzda joylashgan.Hikoya boshlanishidayoq keltirilgan cholning qiyofasi ayniqsa ,

hikoyaning g'ayrioddiy pafosini o'zida mujassamlashtirgan. " U qoboqlari soliq, soqoli qirilmagan, bir paytlar semiz bo'lgan, ajinlar taram-taram qilib tashlagan, ko'rimsiz yuzi badjahl ma'budlarning haykaliga o'xshab ketar, unga qaragan odamning yuragi noxush bir hisdan orqaga tortar edi. Ko'zlari hissiz va ifodasiz, egnida elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kitel, baqbaqasi osilib turgan holda o'ychan o'tirardi."Yozuvchi kitobxon xayolida ko'rimsiz , hayotning butun

chalkashliklari-yu tashvishlariga qo'l siltagan , "yuzi badjahl ma'budlarning haykaligao'xshab" ketadigan , "go'yo atrofidagi olamdan endi hech qanday iltifot kutmay qo'ygan, hech narsaning qizig'i qolmagan" o'zgacha qahramon portretini chizib beradi.Aynan mana shu holat kishida hikoyaga bo'lgan qiziqishni orttirgan.Nega hikoya yorug' tasvirlar bilan emas, "qorong'u" va "xira" tasvirlar bilan boshlanayotgani asarni o'qiyotgan



kitobxonning xayolida noaniqliklar va ko'plab savolarni keltirib chiqaradi.” ...qoboqlari ostida odamlarga adovat bilan tikilib-tikilib qo'yganini ko'rib qolardim. Mana shu tasvir jarayoni hikoyaning tuguni. Talabaning chol bilan, uning chizgan rasmlari bilan tanishuvi, chol va talabaning fikrlari o'rtasidagi konfliktlar jarayonida asar voqealari rivojlanib boradi. Hikoya qahramoni chol chizgan ikki surat uning butun hayotida o'zi ishongan falsafadir. U o'z hayotini shu ikki rasmda mujassamlashtirdi. Uning yoshlikda chizgan rasmi, navqiron, yosh, ko'zlarida qat'iyat va ishonch aks etgan yigitning o'rmondan bo'yniga tarang qilib tortilgan zanjir osilgan maymunni yetaklab chiqishi, bu ramziy belgi bo'lib, cholning yoshlik davrlariga ishora qiladi, ya'ni u yoshligida iqtidorli edi, uning chizgan tasvirlarida yorqinlik ko'tarinkilik qat'iyat aks etib turardi. Maymunni yomonlik, hayotdagi salbiy holatlar, qorong'u bir mafkuraning ramzi deb olsak, yigitning maymunni zanjirlab yetaklab ketishi uning hayotdagi mana shu yomonliklar, salbiy mafkuraga qarshi kurashganligi va uning ustidan g'olib kelishi deya olish mumkin.

Uning umri so'ngida chizgan rasmi- maymun umidsiz ko'zlariga g'am cho'kkan munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab ketardi. Eng qizig'i bu safar cholning bo'ynida zanjir yo'q edi, davr, inson o'zgardi, ammo makon va maymun o'zgarmadi. Mening fikrimcha, bu cholning ijtimoiy mafkura, yomonlikka

taslim bo'lgani, jamiyatda o'zining yoshlikdagi qat'iyatini singdirolmagani, aksinchahayotdagi chirkinliklar, yomonliklarning uning ustidan qilgan g'alabasi edi.

Asarda musavvir obrazi oddiy rassom timsoli sifatida emas, balki jamiyat va inson ruhiyatini chuqur his qiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi. U o'z tasvirlari orqali hayotning murakkab jihatlarini ochishga harakat qiladi. Musavvir qalbidagi iztirob, yolg'izlik va tushkunlik ranglar orqali yanada ta'sirchan ko'rinishda ifodalanadi.



Ranglar asarda ramziy ma'noga ega. Masalan, qora rang ko'pincha g'am-g'ussa, tushkunlik va ichki iztirobni anglatadi. Bu musavvirning ruhiy holatini ifodalashda asosiy vositalardan biridir. Oq rang esa umid, poklik va ruhiy yengillik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Asardagi maymun obrazi ham ramziy xarakterga ega. U insonning ba'zan o'z nafsiga, ba'zan esa jamiyatdagi kulgili va fojeaviy holatlarga bog'lanib qolishini anglatadi. Musavvir bu obraz orqali jamiyatdagi ma'naviy inqirozni ham ko'rsatadi.

Musavvirning ichki kechinmalari asar davomida turli rang tasvirlari bilan uyg'unlashib boradi. Ranglarning almashinuvi qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Bu esa asarning badiiy ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Hikoyadagi talaba obrazi va chol o'zaro ziddiyatda bo'lib, talabaning yorqin fikrlarini o'qish jarayonida fikrimiz cholning fikrlaridagi

“qoralik”dan oq bo'yoqlarga almashadi va hayotda yomonlar bilan birga yaxshilar,

“qoralar” bilan birga “oqlar” ham borligini yana bir bor eslatadi.

Musavvirning asardagi ichki kechinmalari ranglar vositasida yanada ta'sirchan ifodalanadi. Ranglarning badiiy vazifasi nafaqat voqelikni tasvirlash, balki qahramonning ruhiy holatini ochib berishdan iboratdir. Ayniqsa, qora, oq va xira ranglarning qo'llanishi musavvir qalbidagi iztirob, tushkunlik, yolg'izlik va umid kabi hissiyotlarni ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan ranglar asarda estetik va ramziy ma'no kasb etadi.

Asardagi maymun obrazi ham chuqur ramziy mazmunga ega. U insonning ba'zan o'z nafsiga, ba'zan esa jamiyatning ma'naviy inqiroziga bog'lanib qolishini ifodalaydi. Maymun va musavvir obrazlarining o'zaro uyg'unligi orqali muallif inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni, ma'naviy



bo'shliqni va ruhiy izlanishlarni ko'rsatib beradi. Bu esa asarning g'oyaviy-badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Shuningdek, musavvir obrazi orqali san'atkor shaxsining jamiyatdagi o'rni ham ochib beriladi.

San'atkor oddiy insonlardan ko'ra hayotni chuqurroq his etadi, voqelikni o'zgacha nigoh bilan kuzatadi va uni badiiy bo'yoqlar orqali ifodalaydi. Shu sababli musavvirning ruhiy kechinmalari asarning asosiy g'oyaviy tayanchlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, "Maymun yetaklagan odam" asarida rang ramziyligi va musavvirning ichki kechinmalari o'zaro uzviy bog'liq holda badiiy talqin etilgan. Ranglar qahramon ruhiyatining ko'zgusi sifatida xizmat qilgan bo'lsa, musavvir obrazi insonning ma'naviy izlanishlari va ichki ziddiyatlarini ifodalovchi markaziy obrazga aylangan. Shu jihatdan asar o'zbek adabiyotida musavvir obrazi va rang poetikasini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Demak, "Maymun yetaklagan odam" asarida rang ramziyligi va musavvirning ichki kechinmalari o'zaro uzviy bog'liq holda tasvirlangan. Ranglar nafaqat tashqi tasvir vositasi, balki qahramon ruhiyatini ochib beruvchi badiiy kalit vazifasini bajaradi. Shu jihatdan asar o'zbek adabiyotida musavvir obrazi va rang poetikasini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Nazar Eshonqul "Maymun yetaklagan odam" Toshkent "Yangi asr avlodi" – 2004.
- 2.A.Norbekova "Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi misolida" ilmiy maqola .
- 3.Eshonqul, N. Ijod falsafasi. Mendan – mengacha. – Toshkent, 2018.



4.Qo'shjanov, M. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2005.

5.Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.

6.Sayfullayeva. Sh NAZAR ESHONQULNING “MAYMUN
YETAKLAGAN ODAM”

HIKOYASI TAHLILI maqolasidan.